



ANIQLIK-ADEKVATLIK HAR QANDAY TARJIMANING BOSH MEZONIDIR

Lobar Mamarizayeva

O'zbekiston Tarjimonlik fakultetining

4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Dadamirzayeva M.V.

Annotatsiya. Maqolada tarjimaga oid nazariy fikrlar, tarjimonning mahorati va ijodkorligi, tilning nozik jihatlari va tarjimada anqlikning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar, ayniqsa badiiy asarlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Tarjima, tarjimashunoslik, anqlik, ijodkorlik, she'riy tarjima, badiiy tarjima, mutarjim, soha mutaxassislari, tarjimonlar uyushmasi, tarjima nazariyasi, til nozikliklari, tarjima jarayoni.

Аннотация. В статье говорится о теоретических идеях перевода, мастерстве и творчестве переводчика, тонкостях языка и важности точности перевода. Обсуждаются трудности переводческого процесса, особенно проблемы, возникающие при переводе литературных произведений.

Ключевые слова: Перевод, переводоведение, точность, креативность, поэтический перевод, художественный перевод, переводчик, специалисты в данной области, ассоциация переводчиков, теория перевода, тонкости языка, процесс перевода.

Abstract. The article talks about the theoretical ideas of translation, the skill and creativity of the translator, the subtleties of the language and the importance of translation accuracy. The difficulties of the translation process are discussed, especially the problems that arise when translating literary works.

Key words: Translation, translation studies, accuracy, creativity, poetic translation, literary translation, translator, specialists, translators' association, translation theory, subtleties of language, translation process.

Men badiiy adabiyotga, she'riyatga, va ayniqsa, ularni tarjima qilishga juda qiziqaman. Malakaviy amaliyotni nashriyotda o'tkazganim men uchun katta tajriba bo'ldi. Rashid Xo'jamovning "Tarjimon mundarijasi: Har til bilgan mutarjim bo'lmas" nomli maqolasini o'qib juda hayajonlandim va tanlagan soham shu darajada qiziqarli, maroqli qolaversa, chiroylı kasb ekanligiga yanada ko'proq ishonch hosil qilb faxrlandim.

Bir tilni bilgan bir odam, ikki tilni bilgan ikki odam deyishadi. Shu ma'noda, ko'ngil tilining tilmochlari asarlarini ona tilimizda mutolaa qilish, ulardan ma'naviy ozuqa olishda tarjimonlarning o'rni beqiyos, o'zbek tarjimachiligining ulkan iste'dod sohibi tanqidchi Ibrohim G'ofurovning "Tarjimada anqlik kerakmasmi?" nomli maqolasidagi fikrlar yodga tushadi. Bunda atoqli adib Asqad Muxtorning o'tgan asr 50-yillaridagi maqolasida bildirgan "Tarjimondan anqlik talab qilmang. U chizmakash emas, rassom" degan so'zini to'g'ri qabul qilish haqida fikr bildirib



shunday yozadi. Tarjimani ijodkorlik deb qarash undan aniqlik talab qilmaslik kerak ekanda, degan ma'no chiqarishga hech qachon asos bermaydi. Tarjimadan agar aniqlik, nazariya tili bilan aytganda, adekvatlik talab qilinmasa, bu tarjimonni butunlay noto‘g‘ri yo‘nalishga olib kirib ketadi. Aniqlik talab qilmaslik tarjimada istagancha yo‘rg‘alushlar va "olib qochishlarga" (ayniqsa, she’riy tarjamalarda) sabab bo‘ladi. Aniqlik har qanday tarjimaning bosh mezoni. Aniqlik bo‘lgandagina ekvivalentlik va uning turlari ravshan tus oladi. Aniqlik bilan ekvivalentliklar bir-birlariga g‘oyatda nozik bog‘lanishlar bilan chirmashib ketadi.

Darhaqiqat, aniqlik mezoni tarjima uchum g‘oyatda muhim. Asar bir tildan boshqa tilga o‘girilar ekan, mutarjim ikki tilning ham ma'no nozikliklari, badiiy-ifodaviy xususiyatlaridan xabardor bo‘lishi lozim. Sinonimik juftliklardagi qaysi so‘z asl matndagi jumlaning mohiyatini ochib bera olishida, kontekstdagi maqsaddan chalg‘imaslikda tarjimondan katta tajriba, bilim va sinchkovlik talab etiladi.

Tarjimaga oid nazariy qonun-qoidalar XIX-asrdan e’tiboran ishlana boshladi XX asrning yigirmanchi yillaridagina to‘la nazariya tusini oldi. Tarjima nazariyasi va tarjimashunoslik fan sohasi sifatida shakllandi va shu asrda juda shiddat bilan ravnaq topdi Hozirga kelib, dunyoda tarjima nazariyasining, lingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika bilan chambarchas bog‘langan yo‘nalishlari rivojlanmoqda. Universitetlarda, ilmiy markazlarda qiziqarli tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq amaldagi jarayon bular sifatli tarjima asarlari uchun yetarli emasligini ko‘rsatmoqda.

Gohida Dostoyevskiy, Pushkin, Gyote, Balzak, Remark asarlarini ona tilimizga o‘qiganda ularning tarjima ekanini unutib qo‘yamiz, ya’ni ulardagagi tekis va puxta jumlalar o‘girmani asarning sifati haqida fikr bildirishdan ko‘ra mazmun qahramonlar kechinmalari, badiiy niyat haqida o‘ylashga yo‘l ochib beradi. Aslida ham o‘quvchi ochun matnning holatidan uning mazmun-mohiyati muhimroq bo‘lishi kerak

Ibrohim G‘ofurov Dostoyevskiy olamini o‘zbek adabiyotiga mahorat bilan olib kirgan zabardast tarjimon ekani barchamizga ma’lum. Yaqinda Fyodor Dostoyevskiyning o‘zbek tilida "Ayrilmas er" deb nomlangan asari chop etildi. Asar aslida 1869-yilning kuzida yozib tugallangan hamda "Vechny muj" deb nomlangan bo‘lib, unda er, xotin, jazman munosabatlari yoritilgan. "O‘zbekcha "Ayrilmas er deyilganda ham, ruscha "Vechniy muj" deganda ham nozik kinoyalar hamda cheksiz, tuganmas oilaviy, insoniy, axloqiy fojialar tajassum etadi", deydi Ibrohim G‘ofurov asar muqaddimasida tarjima haqida so‘z yuritar ekan.

Yozuvchi o‘z paytida nega aynan shunday nom tanlaganini tushuntirib ketmagan, garchi asarda aldangan er manosi yoritilgan, ammo, Yevropa adabiyotlarida aldangan er ma’nosи "Vechniy muj", ya’ni o‘zbekchaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri "boqiy er" deb olinganda, bu adabiy an’ana tushunchalarimizda uchramagani uchun tub ma’no chiqarilishi qiyin. Asliyatda ham, tarjimada ham soxta bir ibora hosil bo‘ladi.

G‘aroyib asar tarjimasi uchun haqiqiy adekvat nom qidirish oson kechmaydi va tarjimonda vaqt o‘tishi bilan bir qancha o‘zbekcha variantlar paydo bo‘ladi. Biroq, u nomlarning hech biri asarda bayon qilingan voqealar va ko‘tarilgan masalalar, inson xarakterlari, qahramonlar tabiatiga to‘la mos kelmaydi.



“Oxiri bizga “Ayolmand er” degan nom eng munosib bo‘lib tuyuldi. Ammo undan ham vaqt o‘tishi bilan to‘la qanoatlanolmadik. Keyin izlay izlay “Umrboqiy er” degan nom xayolimizni egallab oldi. Unda asliyatga yaqin ajib bir badiiy kinoya ma’nosи zuhurlanmoqda edi. Men asar o‘zbekchasini yakunlayotganimiz sari bu nom ham asar mundarijasи va mazmundorligini yetarli ifodalanayotganiga amin bo‘ldim”, deydi tarjimon.

Shundan keyin ham I.G‘afurov “Xushboq er”, “Doimiy er”, kabi bir qancha nomlar ustida o‘ylanadi. So‘nggi lahzalardagina xayoliga “Ayrilmas er” iborasi keladi va bu tarjima taqdirini belgilaydi. Garchi asliyatning ayni o‘zi bo‘lmasa ham bu nomni o‘zbek o‘quvchisi tushunib, qabul qilishi va o‘ziga yaqin olishi, an'analar ichiga tabiiy kirib borishi mumkin.

Taniqli ingliz shoiri va yozuvchisi, Amerika adabiyotida fantastik-detektiv janrga asos solgan ijodkor Edgar Poning 1827-yilda nashr etilgan “Temirbek” dostoni yaqinda internet tarmog‘ida o‘zbek tilida ilk marta taqdim etildi. Doston shoir va tarjimon Faxriyor tomonidan asliyatdan o‘girilgan. Dostonning ona tilimizga tarjima qilishdagi mashaqqatlar, jarayonda faqat o‘zga tilni bilishning o‘zi yetarlimi, yoki ilhom kelishini kutish, o‘scha shoir-yozuvchining “ruhiyatiga tushish” kerakmi degan savollarimga “Yo‘q, o‘zga tilni bilishning o‘zi yetarli emas. Ijodkorning ruhiyatiga tushish, uslubini boshqa tildan o‘z tilingga ko‘chirishdan qiyin ish yo‘q dunyoda” deb javob berdi shoir Faxriyor. “Professional tarjimon ilhom kelishini kutib o‘tirmaydi. Tajriba bilan ko‘nikmasiga asoslanib, tarjima qilaveradi, faqat ishiga ijodkorona yondashishi shart, chunki bir tildan boshigasiga Google tarjimonga o‘xshab, so‘zma-so‘z tarjima, “kalka”, qilishga uning haqqi yo‘q. Bir tildagi so‘z yoki ibora so‘zma-so‘z tarjima qilinganda asar ruhini bermasligi mumkin” deb aniqlik kiritdi.

Biroq, meni tashvishga solayotgani boshqa narsa, Bu sohada boshboshdoqlik bor. Har kim o‘zicha nimalarnidir tarjima qilayapti. Tarjimonlar o‘rtasida muloqot, tajriba almashuv yo‘q. Bu, ayniqsa, darsliklar, turli fanlarga oid kitoblar tarjimasida bilinadi. Nazarimda, tarjimonlar uyushmasi tashkil etilib, turli konferensiyalar o‘tkazilib, ularda o‘qilgan ma’ruzalar va boshqa materiallar alohida almanax, jurnal yoki kitob shaklida chop etilishi hamda ular har bir tarjimon qo‘liga yetib borishi kerak.

Afsuski, bizda chetdan kirib kelayotgan atamalarni nazorat qiladigan, ularni muayyan tizim orqali standartlashtiradigan tashkilot yo‘q. Shu sabab ularni har kim bilganicha tarjima qilmoqda. Bu chalkashliklar odamni qiyaydi. Tarixda bir so‘zning boshqa ma’nosи bilan tarjima qilingan tashxis bemorlarning o‘limiga sabab bo‘lgan hollar uchraydi.

Shoir Faxriyording fikricha, eng qiyini she’riy asarning ruhini bir tildan boshqasiga ko‘chirish. She’rdagi so‘z o‘yinlari, ohang, qochirim kabi unsurlarni boshqa tilga olib o‘tish deyarli imkonsiz. Ko‘pincha ma’no tarjima etiladi, qolgan narsalar esa unga qurbon qilinadi. Albatta, nasriy asarning ham ruhini bazan to‘liq tarjima qilib bo‘lmaydi. U ham og‘ir mehnat, tajriba va qunt talab qiladi.

Tarjimada, avvalo asliyatdagи material bilan yaxshilab tanishib chiqish, uning mazmuni va uslubini aniqlab olish va shunga yarasha o‘z ona tilida uning adekvat variantini yaratish kerak bo‘ladi. Masalan, aniq fanlarga oid matnni badiiy tarjimaga



o‘xshatib tarjima qila olmaysiz-ku. Yana maqoladagi meni o‘ziga tortgan jumlanı keltirishni joiz deb topdim: "Nega meni qilding tarjima?!"

Tarjima ham xuddi ijod kabi mushaqqatli ish, masuliyatlari jarayon. Unda ham shoir-yozuvchi singari yurakdagi hisni ifodalash uchun necha kunlab munosib so‘zni izlashga, kutishga to‘g‘ri keladi. Har bir yozma asar alohida san’at, shuning uchun tarjimada shoirga xos ijodiy ifodalarni saqlash muhim.

Gohida yangidan nashr etilgan kitoblarni o‘qib, odamning tili g‘alizliklarga to‘qnashib ketadi. Ba’zi tarjimonlarning tarjima ijodiy jarayon ekaniga haddan tashqari urg‘u berib, asl matndan uzoqlashib, noaniq, mujmal jumlalarni qalashtirib tashlashi ham bor gap.

O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidovning shunday misralari bor:

Oy o‘rtanar, ko‘zlarida yosh

Ko‘ksi dog‘u yuragi qiyma.

Der: "Ey falak, men edim quyosh,

Nega meni qilding tarjima?!"

She’nda oy aslida quyosh ekanini iddao qilib, nega meni aslim kabi ko‘rsatmading. deb osmondan ranjimoqda. Bugun chet elda mashhur bo‘lgan, g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammal milionlab o‘quvchisiga ega shunday asarlar borki, tarjimondan xafa: ular ham aslim kabi namoyon eta olmas ekansan, nega meni tarjima qilding, deyayotgandek go‘yo.

Bizda tarjimonlar asosan adabiy asarlarni tarjima qıladilar. Vaholankı, har bir sohaning o‘ziga xos atamalari mavjud bo‘lib, ularni duch kelgan odam tarjima qila olmaydi. Shu bois yangi kadrlarni sohalarga (harbiy, tibbiy, yurdik, iqtisodiy, adabiy va hokazo) istisoslashtirib tayyorlash kerak, deb o‘ylayman

Istagim - sohaga shiddat bilan kirib kelayotgan yoshlar ustozlar etagidan tutib, shu yo‘nalishning sir-asrorlarini puxta egallasin o‘zbek kitobxonlari qo‘lida dunyoqarashi kengaytiradigan, fikrlashga o‘rgatadigan yaxshi tarjima asarlar ko‘paysin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ofurov I. (n.d.). Tarjimada aniqlik kerakmasmi?

2. Muxtor A. (1950). Tarjimondan aniqlik talab qilmang. U chizmakash emas, rassom.

3. G‘afurov I. (n.d.). Fyodor Dostoyevskiyning “Ayrilmas er” asariga oid tarjima izohlari.

4. Faxriyor (2024). Tarjima va ijod: Edgar Poening Temirbek dostoni.

5. Vohidov E. (1980). She’nda tarjima va ijodiy ifoda masalalari.